



# Xorazm viloyatida

## kichik tadbirkorlik

(dastlabki ma'lumotlar)

2020 – yil yanvar – iyun



2020-yilning yanvar – iyunida kichik tadbirkorlikning YaHMdagি ulushi **69,1 %** ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga **11,8** birlikni tashkil qildi.

2020-yilning yanvar – iyunida **2,8** mingta yangi kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan **90,8 %** ni tashkil qildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxona va mikrofirmalar savdoda 768 ta, sanoatda 596 ta, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 830 ta, qurilishda 178 ta, yashash va ovqatlanishda 130 ta, tashish va saqlashda 53 ta tashkil etilgan.

### 2020 – yil yanvar – iyun oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



## Yanvar – iyun oylarida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari

	O'lchov birligi	2019 – y.	2020 – y.	(+;-)
Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni	birlikda	14353	17148	2795
Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni	birlikda	3125	2839	- 286
<b>Kichik tadbirkorlikning ulushlari:</b>				
YaHM	%	70,6	69,1	-1,5
Sanoat	%	30,0	27,8	-2,2
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	%	99,5	98,0	0,1
Investitsiya	%	68,3	73,8	5,5
Qurilish	%	93,7	91,8	-1,9
Savdo	%	79,7	82,0	2,3
Xizmatlar	%	66,0	62,9	-3,1
Yuk tashish	%	93,9	94,1	0,2
Yuk aylanmasi	%	91,4	76,3	-15,1
Yo'lovchi tashish	%	94,0	96,3	2,3
Yo'lovchi aylanmasi	%	96,1	97,6	1,5
Eksport	%	91,8	69,1	-22,7
Import	%	92,8	66,2	-26,6



### 2020 – yilning yanvar – iyunida kichik tadbirkorlikning tarmoqlar bo'yicha asosiy ko'rsatkichlari, % da




2020 – yilning yanvar – iyunida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning tumanlar bo'yicha eng ko'pi Urganch shahrida – 425 ta, Qo'shko'pir tumanida – 290 ta, Gurlan tumanida – 265 ta, Urganch tumanida – 261 ta, Yangibozor tumanida – 241 ta va Xonqa tumanida – 220 tani tashkil etgan. Shuningdek, eng past ko'rsatkich Tuproqqa'l'a tumanida – 75 tani tashkil etgan.

**Tuman va shaharlar bo'yicha yangi tashkil etilgan  
kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda**

	2019 – yil yanvar – iyun	2020 – yil yanvar – iyun	(+;-)
<b>Xorazm viloyati</b>	<b>3125</b>	<b>2839</b>	<b>-286</b>
<i>shaharlar:</i>			
<b>Urganch</b>	578	425	-153
<b>Xiva</b>	298	215	-83
<i>tumanlar:</i>			
<b>Bog'ot</b>	173	218	45
<b>Gurlan</b>	238	265	27
<b>Qo'shko'pir</b>	212	290	78
<b>Urganch</b>	425	261	-164
<b>Hazorasp</b>	267	119	-148
<b>Tuproqqal'a</b>	-	75	75
<b>Xonqa</b>	242	220	-22
<b>Xiva</b>	214	188	-26
<b>Shovot</b>	198	156	-42
<b>Yangiariq</b>	169	166	-3
<b>Yangibozor</b>	111	241	130



**2020 – yil yanvar – iyun holatiga ko'ra yangi tashkil  
topgan kichik korxona va mikrofirmalarning  
tuman va shaharlar bo'yicha ulushi, % da**




2020 - yilning yanvar - iyun oylarida tumanlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning jami miqdoridan eng ko'p ulush Urganch shahri - 15,0 %, Qo'shko'pir tumani - 10,2 %, Gurlan tumani - 9,3 %, Urganch tumani - 9,2 %, Yangibozor tumani - 8,5 %, Xonqa tumani - 7,8 %, Bog'ot tumani - 7,7 %, Xiva shahri - 7,6 %, Xiva tumani - 6,6 % ga tegishli.

### Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda

	2019- yil yanvar- iyun	2020 - yil yanvar- iyun	(+;- )
<b>Jami</b>	<b>3125</b>	<b>2839</b>	<b>-286</b>
<b>Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi</b>	407	830	423
<b>Sanoat</b>	699	596	-103
<b>Qurilish</b>	232	178	-54
<b>Savdo</b>	1142	768	-374
<b>Tashish va saqlash</b>	86	53	-33
<b>Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar</b>	260	130	-130
<b>Axborot va aloqa</b>	31	45	14
<b>Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish</b>	34	54	20
<b>Boshqa faoliyat turlari</b>	234	185	-49

**Ma'lumot uchun:** 2020 – yilning yanvar – iyunida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning eng ko'p salmog'i, birlikda:




## Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan tuman va shaharlar, birlikda

	2019 - yil yanvar-iyun	2020 - yil yanvar-iyun	Farqi (+;-)
Urganch sh.	578	425	-153
Qo'shko'pir tumani	212	290	78
Gurlan tumani	238	265	27
Urganch tumani	425	261	-164
Yangibozor tumani	111	241	130
Xonqa tumani	242	220	-22
Bog'ot tumani	173	218	45
Xiva sh.	298	215	-83
Xiva tumani	214	188	-26
Yangiariq tumani	169	166	-3

2020 – yilning yanvar – iyunida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning eng ko'pi Urganch shahrida – 425 taga yetdi.




## Yangi tashkil etilgan korxonalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan tuman va shaharlar, birlikda





## Xorazm viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda), yanvar - iyun holatiga ko'ra\*



2020 – yilning yanvar–iyunida kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda) tumanlar bo'yicha eng ko'p ko'rsatkich Urganch shahrida 26,4 birlik, Xiva shahrida 17,3 birlik, Yangibozor tumanida 13,5 birlik. Urganch tumanida 13,4 birlik, Yangiariq tumanida 13,2 birlik, Tuproqqa'l'a tumanida 11,8 birlik, Xiva tumanida 11,7 birlikni tashkil etgan. Hazorasp tumanida esa ushbu ko'rsatkich eng past bo'lib 6,4 birlikka to'g'ri keldi.

\* Kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)




## 2020 – yilning yanvar – iyunida tuman va shaharlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda)\*



\* Kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)




## 2020 – yilning yanvar – iyunida tuman va shaharlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni\* (har 1000 aholiga, birlikda)



2020 – yilning yanvar – iyunida kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda) tuman va shaharlar bo'yicha eng ko'p ko'rsatkich Urganch shahrida 26,4 birlik, Xiva shahrida 17,3 birlik, Yangibozor tumanida 13,5 birlik, Urganch tumanida 13,4 birlik, Yangiariq tumanida 13,2 birlik, Tuproqqa'l'a tumanida 11,8 birlik, Xiva tumanida esa 11,7 birlikni tashkil etdi.

\* Kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)

## Faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda)




- **Eng yuqori ko'rsatkich**  
Urganch shahri - **26,4** birlik;
- **O'rtacha ko'rsatkich**  
Tuproqqa'l'a tumani - **11,8** birlik;
- **Eng past ko'rsatkich**  
Hazorasp tumani - **6,4** birlik;

Bundan ko'rinish turibdiki, Urganch shahrida tovar va xizmatlarga bo'lgan talab eng yuqori darajada bo'lgani uchun ham bu tumanda korxonalar soni ko'paygan. Aksincha, Hazorasp tumanida tovar va xizmatlarga bo'lgan talab pastligi uchun ham korxona soni o'zgarmagan va eng past darajaga tushib ketdi.

### Kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushini pasayish Dinamikasi, yanvar - mart holatiga ko'ra, % da


2020 – yilning yanvar – iyunida kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushi 69,1 % ni tashkil qildi. (2019 yilning yanvar - iyunida 70,6 %).

YaHMning o'tgan yilga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan izohlanadi.





## Kichik tadbirkorlikning iqtisodiyot tarmoqlaridagi ulushi (umumiy hajmiga nisbatan % da)



**2020 – yilning yanvar – iyunida kichik tadbirkorlikni tuman va shaharlar kesimida iqtisodiyotning asosiy tarmoqlaridagi ulushi, (%) da**

	Sanoat	Qurilish	Xizmatlar	Investitsiya
<b>Xorazm viloyati</b>	<b>27,8</b>	<b>91,8</b>	<b>62,9</b>	<b>73,8</b>
<i>shaharlar:</i>				
<b>Urganch</b>	<b>41,8</b>	<b>84,1</b>	<b>32,5</b>	<b>41,8</b>
<b>Xiva</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>	<b>98,7</b>	<b>64,7</b>
<i>tumanlar:</i>				
<b>Bog'ot</b>	<b>71,2</b>	<b>93,2</b>	<b>98,0</b>	<b>93,4</b>
<b>Gurlan</b>	<b>52,6</b>	<b>96,9</b>	<b>98,5</b>	<b>89,0</b>
<b>Qo'shko'pir</b>	<b>37,4</b>	<b>94,2</b>	<b>97,7</b>	<b>89,8</b>
<b>Urganch</b>	<b>69,8</b>	<b>94,3</b>	<b>88,4</b>	<b>84,9</b>
<b>Hazorasp</b>	<b>39,6</b>	<b>97,3</b>	<b>92,5</b>	<b>76,1</b>
<b>Tuproqqa'l'a</b>	<b>1,8</b>	<b>100,0</b>	<b>92,8</b>	<b>84,4</b>
<b>Xonqa</b>	<b>55,5</b>	<b>73,4</b>	<b>97,0</b>	<b>94,5</b>
<b>Xiva</b>	<b>100,0</b>	<b>98,5</b>	<b>100,0</b>	<b>81,7</b>
<b>Shovot</b>	<b>34,7</b>	<b>100,0</b>	<b>96,3</b>	<b>73,0</b>
<b>Yangiariq</b>	<b>23,2</b>	<b>99,0</b>	<b>98,1</b>	<b>91,0</b>
<b>Yangibozor</b>	<b>29,9</b>	<b>96,0</b>	<b>98,4</b>	<b>90,1</b>

Tuman va shaharlar bo'yicha kichik tadbirkorlikning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi eng ko'p:

**Sanoatda-**

Xiva sh. (100,0 %),  
Xiva (100,0 %),  
Bog'ot (71,2 %),  
Urganch (69,8 %),  
Xonqa (55,5 %) va  
Gurlan (52,6 %)  
tumanlarida.


**Qurilishda-**

Xiva sh. (100,0 %),  
Tuproqqa'l'a (100,0 %),  
Shovot (100,0 %),  
Yangiariq (99,0 %),  
Xiva (98,5 %) va  
Hazorasp (97,3 %)  
tumanlarida.

**Xizmatlarda-**


Xiva (100,0 %),  
Xiva sh. (98,7 %),  
Gurlan (98,5 %),  
Yangibozor (98,4 %),  
Yangiariq (98,1 %) va  
Bog'ot (98,0 %)  
tumanlarida.

## Kichik tadbirkorlik sub'yektlar tomonidan 2020 - yilning yanvar - iyunida

- 
- I  Sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi 1278,7 mld.so'mni (jami sanoat ishlab chiqarishning 27,8 %) ni tashkil qildi.
  - II  2067,9 mld.so'mlik investitsiyalar (umumiyligi hajmining 73,8 %) o'zlashtirildi va 2019-yilning yanvar-iyuniga nisbatan o'sish sur'ati 109,9 % ni tashkil qildi;
  - III  1314,1 mld.so'mlik qurilish ishlari (qurilish ishlari umumiyligi hajmining 91,8 %) bajarildi va 2019-yilning yanvar-iyuniga nisbatan 99,1 % ni tashkil qildi;
  - IV  1861,1 mld.so'mlik xizmatlar ko'rsatilib (viloyat jami xizmatlar hajmining 62,9 %) 2019-yilning yanvar-iyuniga nisbatan 97,2 % ni tashkil qildi;
  - V  Chakana tovar aylanmasi umumiyligi hajmining 82,0 % yoki 3127,6 mld.so'mi (94,9 % ni tashkil qildi) shakllantirildi;
  - VI  59,8 mln.AQSH dollarasi (umumiyligi eksport hajmining 69,1 %) miqdorida mahsulotlar (ish va xizmatlar) eksport qilindi;
  - VII  Avtomobil transport yuk aylanmasi 97,7 % ni (viloyat jami avtomobil transport yuk aylanmasining 76,3 %) tashkil qildi;
  - VIII  Yolovchi aylanmasi 94,3 % ni (umumiyligi yo'lovchi aylanmasining 97,6 %) tashkil qildi;




## Kichik tadbirkor subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (tovar, xizmatlar) eksportining, jami eksportdagi ulushi, % da



2020 – yil yanvar – iyun oylarida tuman va shaharlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari mahsulotlar (tovar, xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushini Bog'ot tumanida – 100,0%, Xiva tumanida – 100,0 %, Yangiariq tumanida – 100,0 %, Tuproqqa'l'a tumanida – 100,0 %, Qo'shko'pir tumanida – 100,0 %, Xiva shahrida – 98,7 %, Gurlan tumanida – 97,8 %, Urganch tumanida – 86,6 % ni, eng past ko'rsatkich Yangibozor tumanida – 35,2 % ni tashkil etdi.




## Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (tovar, xizmatlar) importining, jami importdag'i ulushi, % da



2020 – yil yanvar – iyun oylarida tuman va shaharlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (tovar, xizmatlar) importining jamiga nisbatan eng yuqori ulushi Gurlan tumanida – 100,0 %, Xiva shahrida – 100,0 %, Qo'shko'pir tumanida – 100,0 %, Xiva tumanida – 100,0 %, Bog'ot tumanida – 100,0 %, Hazorasp tumanida – 99,6 %. Eng past ko'rsatkich Tuproqqal'a tumanida - 11,7 % ni tashkil etdi.




## 2020 – yilning yanvar – iyunida tuman va shaharlar bo`yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi




Tuman va shaharlar bo`yicha eng ko'p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Urganch shahri (377,6 mlrd. so'm), Xonqa (170,3 mlrd. so'm), Gurlan (105,0 mlrd. so'm), Urganch (101,1 mlrd. so'm) va Bog'ot (97,9 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Qo'shko'pir tumanida (35,3 mlrd. so'm) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi past bo'lib qolmoqda.






## 2020 – yil yanvar – iyun holatiga ko’ra jami sanoat mahsulotidagi kichik tadbirkorlikning tuman va shaharlar bo'yicha ulushi, % da



Tuman va shaharlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushini Xiva tumani (100,0%), Xiva shahri (100,0%), Bog’ot tumani (71,2%), Urganch tumani (69,8%), Xonqa tumani (55,5%), Gurlan tumani (52,6%), Urganch shahri (41,8%), Hazorasp tumani (39,6%), Qo’shko’pir tumani (37,4%), va Shovot (34,7%), tumanlari tashkil etdi. Tuproqqa'l'a tumanida (1,8%) kichik tadbirkorlikning ulushi eng past bo'lib qolmoqda.




## 2020 – yilning yanvar – iyunida tuman va shaharlar bo`yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da chakana savdo tovar aylanmasi hajmi va o’sish sur’ati



Tuman va shaharlar bo`yicha eng ko’p chakana savdo tovar aylanmasi hajmi Urganch shahri - 817,3 mlrd. so’m (2019 yilning yanvar – iyunuga nisbatan o’sish sur’ati 94,3%), Hazorasp tumani 343,4 mlrd. so’m (95,5%), Gurlan tumani 303,4 mlrd.so’m (116,3%) va Urganch tumani 300,6 mlrd. so’m (91,9%) hissasiga to’g’ri keladi.



## 2020 – yilning yanvar – iyunida tuman va shaharlar bo`yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o’sish sur’ati



Tuman va shaharlar bo`yicha eng ko’p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Urganch shahri 317,4 mlrd. so’m (2019 yilning yanvar – iyunuga nisbatan o’sish sur’ati 89,3%), Xiva tumani 114,1 mlrd. so’m (113,7%), Urganch tumani 108,3 mlrd. so’m (90,2%), Yangibozor tumani 99,8 mlrd. so’m (103,9%) , Xiva shahr ida 94,8 mlrd. so’m (106,4%) hamda Yangiariq tumani 90,5 mlrd. so’m (86,6%) qayd etildi.





## 2020 – yilning yanvar – iyunida tuman va shaharlar bo`yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da xizmatlar sohasi hajmi va o’sish sur’ati




Tuman va shaharlar bo`yicha eng ko’p xizmatlar hajmi Urganch shahri - 498,5 mlrd. so’m (2019 yilning yanvar – iyunuga nisbatan o’sish sur’ati 85,7%), Urganch tumani 184,1 mlrd. so’m (92,3%), Tuproqqa’la tumani 134,5 mlrd. so’m (103,7%), Qo’shko’pir tumani 123,3 mlrd. so’m (110,6%) hissasiga to’g’ri keladi.



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2020 – yil II chorak yakunlariga ko'ra, kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan taqdim etilgan oxirgi yillik hisobotda mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan sof tushumi mavjudlari bo'yicha tanlanma kuzatuvlar o'tkazildi. Unda **783** ta respondentlar ishtirok etdi.

### **2020 – yil II – chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi\* , % da**




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning ulushi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida – 4,5 % (35 ta.), sanoatda – 13,3 % (104 ta), qurilishda – 13,0% (102 ta), savdoda – 40,3% (316 ta), xizmatlar sohasida – 28,9 % (226 ta) ni tashkil etdi.


\* oxirgi yillik statistik hisobotga muvofiq mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan sof tushumga ega bo'lган kichik korxonalar va mikrofirmalar bo'yicha.



**2020 – yil II chorak bo'yicha oxirgi yillik hisobotda mahsulot  
(tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan sof tushumi  
bo'lgan kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va  
mikrofirmalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi, birlikda**



**2020 – yil II chorak bo'yicha oxirgi yillik hisobotida mahsulot  
(tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan sof tushumi bo'lgan  
kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va  
mikrofirmalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi, % da**




Kichik korxona va mikrofirmalarning 2020 – yilning II choragida, oxirgi hisobot yilda mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan tushgan sof tushumi mavjudlari bo'yicha o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra o'tgan yilning shu davriga nisbatan qoniqarli iqtisodiy vaziyat qurilish korxonalarida 18,6 punktga, xizmatlar sohasida 12,0 punktga, savdoda 9,6 punktga, sanoat korxonalarida 17,3 punktga, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 18,2 punktga oshdi.

Shu bilan birga, o'tgan yil bilan taqqoslaganda iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholaydigan barcha faoliyat turlari bo'yicha korxonalar ulushining pasayishi kuzatildi.

Joriy yilning II choragida, o'tgan yilning shu davri bilan taqqoslaganda savdoda 2,4 punktga, qurilish korxonalarida 0,7 punktga, sanoat sohasida 0,3 punktga iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalar ulushining ko'payishi kuzatildi.

### Oxirgi hisobot yilda sof tushumi mavjud bo'lgan kichik korxona va mikrofirmalarning 2019 – 2020 – yillarda II chorakdagi iqtisodiy vaziyatini baholash, % da




Kichik korxona va mikrofirmalarning 2020 – yilning II choragida, oxirgi hisobot yilida mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan tushgan sof tushumi mavjudlari bo'yicha o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra, o'tgan yilning mos davriga nisbatan yaqin uch oyda iqtisodiy vaziyatni yaxshilanishiga ishongan korxonalar ulushi deyarli barcha iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kamaygan.

Shu bilan birga, o'tgan yil bilan taqqoslaganda , xizmatlar sohasi 4,9 punktga, savdo sohasi 7,3 punktga, qurilish korxonalari 5,5 punktga, sanoat korxonalari 7,3 punktga, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi korxonalari 2,8 punktga, yaqin uch oyda ularning iqtisodiy vaziyati o'zgarishsiz qolishiga ishongan korxonalar ulushi o'sdi.

Yaqin kelajakda iqtisodiy vaziyat yomonlashishini baholagan korxonalar ulushi ximatlar sohasida 6,2 punktga, sanoat sohasida 2,9 punktga, savdoda 1,3 punktga, qurilishda 1,0 punktga oshdi.




### Oxirgi hisobot yilida sof tushumi mavjud bo'lgan korxonalarning 2019 – 2020 – yillarda II chorakdag'i iqtisodiy vaziyatini yaqin uch oyda baholanishi,% da






2020 – yilning II choragi yakunlariga ko'r'a yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati kuzatildi, unda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 139 ta respondentlar qatnashgan. Shundan sanoat korxonalari – 25 ta (ishtirok etgan respondentlarning umumiy sonining 18,0% i), qurilish – 9 ta (6,5% i), savdo – 43 ta (30,9% i) va xizmatlar – 25 ta (18,0%), qishloq, o'rmon va baliq ho'jaligi – 37 ta (26,6% i).

**2020 – yil II chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi, % da**






**2020 – yil II chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning tuman va shaharlar bo'yicha taqsimlanishi, birlikda**




**2020 – yil II chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning tuman va shaharlar bo'yicha taqsimlanishi, % da**




Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar kuzatuvi ma'lumotlariga ko'ra, 2020 – yilning II choragida o'tgan yilning shu davriga nisbatan taqqoslaganda iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalar ulushi deyarli barcha faoliyat turlari bo'yicha pasayishi kuzatildi.

Shu bilan birga, joriy yilning II choragida o'tgan yilning shu davriga nisbatan iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholaydigan deyarli barcha faoliyat turlari bo'yicha korxonalar ulushining o'sishi kuzatildi.

Joriy yilning II choragida, o'tgan yilning shu davri bilan taqqoslaganda xizmatlar sohasida 6,0 punktga, sanoat sohasida 6,1 punktga, savdoda 2,6 punktga, iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalar ulushining pasayishi kuzatildi.



### 2019 – 2020 – yillar II chorakdagi yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy vaziyatini baholash, % da



Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar faoliyatini kuzatuvi natijalariga ko'ra, 2020 – yilning II choragini o'tgan yilning shu davri bilan taqqoslaganda, yaqin uch oy ichida iqtisodiy vaziyatni yaxshilashga ishongan korxonalar ulushi deyarli barcha iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kamaygan.

Shuningdek, o'tgan yil bilan taqqoslaganda, yaqin uch oydag'i iqtisodiy vaziyat o'tgan yilga nisbatan o'zgarmaydi deb hisoblagan korxonalar ulushi xizmatlar sohasida 5,4 punktga, qurilishda 44,5 punktga kamaydi, savdoda 1,0 punktga, sanoat sohasida 29,8 punktga, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi korxonalarida esa 10,3 punktga oshdi.

Yaqin kelajakda iqtisodiy vaziyatni yomonlashishini baholagan korxonalar kuzatilmadi.

